



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- yil yanvar –iyun oylari
uchun dastlabki ma'lumot

FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi (73) 241-67-68



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2024-** yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **885,5 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2023-** yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan **85,3 mln. AQSH** dollariga yoki **8,8 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar –iyun mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **885,5- 8,8 %**

(2023- y.: **970,8**)



Saldo

2024- y.: - **143,5**
(2023 y.: - **291,6**)



Eksport

2024- y.: **371,0** + **9,2 %**

(2023- y.: **339,6**)



Tovarlar: **366,5**



Xizmatlar: **4,5**



Import

2024- y.: **514,5** - **18,5 %**

(2023- y.: **631,2**)



Tovarlar: **512,6**



Xizmatlar: **1,9**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **371,0** mln. AQSH dollariga (**9,2 %** ga ko'paydi) va import hajmi **514,5** mln. AQSH dollariga (**18,5 %** ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida **-143,5** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

XXR TSA – 249,5 Eksport: 19,5 Import: 230,0  28,2 %	Rossiya TSA –228,5 Eksport: 157,6 Import: 70,9  25,8 %	Qozog'iston TSA – 99,6 Eksport: 25,2 Import: 74,4  11,3%	Turkiya TSA – 69,2 Eksport: 47,3 Import: 21,9  7,8 %	Qirg'iz Respublikasi TSA – 48,5 Eksport: 23,4 Import: 25,1  5,5 %
Afg'oniston TSA – 27,0 Eksport: 24,9 Import: 2,1  3,0%	Eron TSA – 20,4 Eksport: 17,6 Import: 2,7  2,3 %	Turkmaniston TSA – 15,0 Eksport: 11,6 Import: 3,4  1,7 %	Hindiston TSA – 14,1 Eksport: 0,1 Import: 14,0  1,6 %	Tojikiston TSA – 13,5 Eksport: 11,4 Import: 2,1  1,5 %

Farg'ona viloyati jahonning **73** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**28,2** %), Rossiyada (**25,8** %), Qozog'istonda (**11,3** %), Qirg'iz Respublikasida (**5,5** %), Turkiyada (**7,8** %) va Afg'onistonda (**3,0** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston va Afg'anisron bilan **1,2** barobarga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



Rossiya Federatsiyasi– 86,6



Afg'oniston – 22,8



Turkiya– 25,4



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Turkiya va Rossiya Federatsiyasi shular jumlasidandir. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	XXR	246,1	265,4	249,5
	<i>Eksport</i>	41,6	17,7	19,5
	<i>Import</i>	204,5	147,6	230,0
	Rossiya Federatsiyasi	272,0	273,2	228,5
	<i>Eksport</i>	133,8	149,0	157,6
	<i>Import</i>	138,2	124,2	70,9
	Qozog'iston	132,9	113,5	99,6
	<i>Eksport</i>	13,3	19,4	25,2
	<i>Import</i>	119,6	94,0	74,4
	Turkiya	98,2	50,5	69,2
	<i>Eksport</i>	64,8	25,1	47,3
	<i>Import</i>	33,4	25,4	21,9
	Qirg'iz Respublikasi	58,8	52,8	48,6
	<i>Eksport</i>	31,5	30,5	23,4
	<i>Import</i>	27,3	22,3	25,1
	Afg'oniston	23,3	21,5	26,9
	<i>Eksport</i>	20,3	21,3	24,9
	<i>Import</i>	-	0,2	2,0
	Eron	17,3	17,9	20,4
	<i>Eksport</i>	14,4	15,6	17,6
	<i>Import</i>	2,9	2,3	2,8
	Turkmaniston	18,3	1,1	15,0
	<i>Eksport</i>	15,1	0,5	11,6
	<i>Import</i>	3,2	0,6	3,4
	Hindiston	11,5	6,4	14,1
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
	<i>Import</i>	11,4	6,3	14,0
	Tojikiston	14,0	20,7	13,5
	<i>Eksport</i>	8,5	14,7	11,4
	<i>Import</i>	5,5	6,0	2,1

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Belarus	6,7	11,2	11,2
	<i>Eksport</i>	2,7	5,3	3,6
	<i>Import</i>	4,0	5,9	7,6
	Polsha	22,8	14,5	9,1
	<i>Eksport</i>	16,2	5,5	6,4
	<i>Import</i>	6,7	9,5	2,7
	Koreya Respublikasi	17,7	13,6	8,6
	<i>Eksport</i>	2,7	0,2	0,3
	<i>Import</i>	15,0	13,3	8,3
	Gonkong	6,0	6,6	8,2
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	6,0	6,6	8,2
	Germaniya	11,4	13,6	7,9
	<i>Eksport</i>	2,9	1,7	0,6
	<i>Import</i>	8,5	11,9	7,3
	Italiya	7,6	10,3	7,6
	<i>Eksport</i>	1,3	4,3	1,1
	<i>Import</i>	6,3	5,9	6,5
	Pokiston	4,8	5,1	5,5
	<i>Eksport</i>	4,2	4,6	3,2
	<i>Import</i>	0,6	0,5	2,3
	Litva	11,6	17,8	5,4
	<i>Eksport</i>	1,0	3,2	4,3
	<i>Import</i>	10,7	14,5	1,1
	Latviya	1,6	3,5	3,2
	<i>Eksport</i>	1,0	2,4	3,0
	<i>Import</i>	0,6	1,1	0,2
	Yaponiya	6,2	0,4	2,9
	<i>Eksport</i>	0,4	0,0	0,0
	<i>Import</i>	5,8	0,4	2,9

FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024- yil yanvar -iyun, mln. AQSH doll.)*



ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qoqon shahri 20,3 % ulush bilan 179,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa So'x tumani 0,6 % ulush bilan 5,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **47,5** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan **2,3** % ga kamaydi.



Farg'ona viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-iyun oyilarida 2023- yilning mos davriga nisbatan **2,3** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **52,5** % ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, **420,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **236,1** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **184,5** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



FARG'ONA VILOYATNING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 228,5
Eksport – 157,6
Import – 70,9



Qozog'iston

TSA – 99,6
Eksport – 25,2
Import – 74,4



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 48,6
Eksport – 23,5
Import – 25,1



Belarus

TSA – 11,2
Eksport – 3,6
Import – 7,6



Tojikiston

TSA – 13,5
Eksport – 11,4
Import – 2,1



Ukraina

TSA – 1,5
Eksport – 0,8
Import – 0,7



Turkmaniston

TSA – 15,0
Eksport – 11,6
Import – 3,4



Ozarbajjon

TSA – 1,6
Eksport – 1,5
Import – 0,1



Moldova

TSA – 0,8
Eksport – 0,8
Import – 0,0



Armaniston

TSA – 0,3
Eksport – 0,3
Import – 0,0



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**54,3 %**), Qozog'iston (**23,6 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**11,6 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

export →


FARG'ONA VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **572** taga yetdi va ular tomonidan **371,0** mln. AQSH dollari (2023- yilning mos davriga nisbatan **9,2** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	339,6	371,0	81,6	109,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	144,1	149,0	141,8	103,3	42,4	40,2
Ichimliklar va tamaki	1,0	0,8	3,6 m.	80,3	0,3	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,9	12,0	62,8	100,6	3,5	3,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,1	1,7	25,8	80,3	0,6	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,1	0,6	183 m.	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10,9	34,8	49,4	3,2 m.	3,2	9,4
Sanoat tovarlari	122,5	130,7	53,8	106,6	36,1	35,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3,3	2,7	100,8	83,2	1,0	0,7
Turli xil tayyor buyumlar	40,4	34,9	140,2	86,3	11,9	9,4
Xizmatlar	3,4	4,5	63,8	132,9	1,0	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **84,8 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**35,2 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**40,2 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**9,4 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun)

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	149,0	103,3
Sabzavotlar va mevalar	126,8	107,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	19,5	88,3
Tirik hayvonlar	1,3	10 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,8	25,9
Ichimliklar va tamaki	0,8	80,3
Ichimliklar	0,8	78,8
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,0	100,6
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7,8	166,6
Metal rudalar va metal parchalari	0,5	87,7
Qog'oz massasi va makulatura	2,3	44,6
Xayvonlar va usimliklardan kelib chikkan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,5	86,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,7	80,3
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,4	67,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar	34,8	3.2 m.
Noorganik kimyo moddalari	4,2	3,4 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,1	20,4
O'g'itlar	28,1	5,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,2	7,6


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	130,7	106,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	115,9	105,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	0,9	26,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	9,2	118,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1,8	2,1 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2,7	83,2
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,5	51,2
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	1,0	87,7
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	0,9	94,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,3	185,4
Turli xil tayyor buyumlar	34,9	86,3
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	27,9	88,9
Har xil tayyor buyumlar	3,4	111,7
Poyabzal	1,7	41,2
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	0,3	70,3

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga **2,6 %** ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Afg'oniston, Eron va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **85,2 %** ni tashkil etdi.



FARG'ONA VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, % da)






FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rne	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	149,0	157,6	111,4	105,7	1	1
Turkiya	25,1	47,3	38,7	188,6	3	2
Qozog'iston	19,4	25,2	146,1	129,7	5	3
Afg'aniston	21,3	24,9	91,1	117,0	4	4
Qirg'iz Respublikasi	30,5	23,4	96,9	76,8	2	5
XXR	17,7	19,5	42,7	110,1	6	6
Eron	15,6	17,6	108,3	112,9	7	7
Turkmaniston	0,5	11,6	3,2	24 m.	27	8
Tojikiston	14,7	11,4	174,1	77,3	8	9
Polsha	5,6	6,4	34,3	115,8	9	10
Litva	3,2	4,3	3,3 m.	133,1	14	11
Belarus	5,3	3,6	194,8	67,0	10	12
Pokiston	4,6	3,2	111,6	69,4	12	13
Latviya	2,4	3,0	2,5 m.	123,0	15	14
Ozarbajjon	1,6	1,5	2,1 m.	92,0	19	15
BAA	0,6	1,3	92,4	210,6	26	16
Italiya	4,3	1,1	3,5 m.	24,3	13	17
Iroq	1,0	1,0	7,5 m.	106,4	21	18
Misir	0,4	0,9	5,4	2,0 m.	28	19
Moldova Respublikasi	0,9	0,8	161,6	91,6	22	20

FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH doll.)*

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Oltiariq tumani 19,2 % ulush bilan 71,2 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa So'x tumani 0,5% ulush bilan 1,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-iyun oylarida **161,4** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan **19,9 %** ga kamaydi yoki **40,1** ming tonnaga kamaydi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **126,6 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **7,3 %** ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **34,1 %** ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyun, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum 2,3 mln. AQSH dollari 2,2 ming tonna  51,5 % ↑	Qashqar gilos 38,4 mln. AQSH dollari 19,1 ming tonna  46,4 % ↑	Karam 7,6 mln. AQSH dollari 24,2 ming tonna  2,1 m. ↑	O'rik 27,6 mln. AQSH dollari 28,4 ming tonna  48,6 % ↑
Pomidor 5,7 mln. AQSH dollari 6,1 ming tonna  42,3 % ↓	Sabzi 3,2 mln. AQSH dollari 12,6 ming tonna  3,4 m. ↑	O'lxo'ri 3,6 mln. AQSH dollari 4,3 ming tonna  41,7 ↑	Shaftoli 8,8 mln. AQSH dollari 7,5 ming tonna  0,5 % ↓

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar - iyun)



Davlatlar	ming tonna	mln. AQSH dollari	ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	99,3	90,9	71,8
 Qozog'iston	35,8	16,8	13,3
 Qirg'iz Respublikasi	18,0	11,7	9,2
 XXR	2,4	2,0	1,6
 Boshqalar	5,9	5,2	4,1

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (61,8 %), Qozog'iston (13,3%) hamda Qirg'iz Respublikasi (9,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.





TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha **142,9 mln.** AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **38,5 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **1,9 %** ga ko'paydi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxta ip (**65,6 %**), trikotaj mato (**4,3%**) va tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**19,3 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **133** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **25** ta davlatiga eksport qilindi.


TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar -iyun, mln. AQSH dollari)



142,9 (2023 y.: 140,2)

Jami



93,7 (83,6)

Ip kalava



27,6 (31,4)

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari



6,2 (9,3)

Trikotaj mato



5,0 (5,9)

Gazlamalar



10,4 (10,0)

Ipak va boshqa mahsulotlar

DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, %da *
 Rossiya Federatsiyasi	44,7	47,3	105,7
 Turkiya	21,3	41,6	195,2
 Eron	15,4	17,6	114,1
 XXR	16,5	17,2	104,2
 Polsha	4,0	5,1	127,9
 Belarus	3,6	2,0	57,2
 Pokiston	0,0	1,4	-
 Qirg'iz Respublikasi	11,2	1,4	12,3
 Italiya	4,3	1,1	24,3
 Misr	0,4	0,9	201,2
 Afg'aniston	0,0	0,8	-
 Moldova Respublikasi	0,7	0,8	111,9
 Ozarbayjon	1,3	0,7	55,8
 Qozog'iston	1,3	0,7	50,4
 Boshqa davlatlar	15,4	4,5	29,2



Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to'qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (33,1% – 47,3 mln. AQSH dollari) va Turkiya (29,1 % – 41,6 mln. AQSH dollari) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun ulushi, % da)



Transport xizmatlari 55,7 %



Moliyaviy xizmatlar 22,2 %



Safarlar (turizm) 15,0 %



Telekommunikatsiya, kompyuter
va axborot xizmatlari 7,1 %



Xizmatlar eksporti hajmi **4,5** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,2** % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **32,9** % ga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**15,0**%), transport (**55,7** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**7,1** %) va moliyaviy xizmatlar (**22,2** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi **514,5** mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan **81,5** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**28,6** %), sanoat tovarlari (**28,1** %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**16,3** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **117,0** mln. AQSH dollariga kamaydi va **512,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1,9** mln. AQSH dollariga yetdi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	631,2	514,5	100,2	81,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	99,4	84,0	122,1	84,5	15,7	16,3
Ichimliklar va tamaki	0,4	1,5	77,7	3,8 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	21,2	16,0	103,8	75,5	3,4	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	66,7	54,1	49,9	81,2	10,6	10,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,8	6,1	2,2 m.	104,6	0,9	1,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	50,1	36,5	150,4	72,8	7,9	7,1
Sanoat tovarlari	140,0	144,6	107,5	103,3	22,2	28,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	230,7	147,4	111,5	63,9	36,6	28,6
Turli xil tayyor buyumlar	15,4	22,5	79,7	146,7	2,4	4,4
Xizmatlar	1,5	1,9	109,3	122,6	0,2	0,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyun)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	84,0	84,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	48,4	64,7
Tirik hayvonlar	4,0	96,2
Sabzavotlar va mevalar	16,2	174,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,5	116,7
Ichimliklar va tamaki	54,1	81,2
Ichimliklar	1,5	3,8 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16,0	75,5
56 bulimga kiritilgandan tashqari ug'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va kimmatbaxh toshlardan tashqari)	7,3	127,6
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato xolatiga keltirilmagan)	0,4	14,4
Probka va yog'och	6,2	55,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	54,1	81,2
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	31,5	55,4
Ko'mir, koks va briketlar	21,9	2,2 m.
Xayvonlar va usimliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar	6,1	104,6
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	6,0	105,3
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	36,5	72,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	6,0	148,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	6,8	64,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5,2	51,5

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	144,6	103,3
Cho'yan va po'lat	61,1	122,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,6	60,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	20,0	67,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	4,6	60,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	147,4	63,9
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1,4	52,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	47,9	49,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	32,0	73,5
Avtomobillar	35,4	66,9
Turli xil tayyor buyumlar	22,5	146,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	7,5	169,8
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	8,0	118,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	4,3	2,2 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	0,8	169,4



2024-yil yanvar-iyun natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **35,9 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **4,3 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar – iyun oylarida Farg'ona viloyati **62** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Koreya Respublikasi va Hindiston) jami importning **86,5 %** tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, % da)






FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
XXR	247,6	230,0	121,1	92,9	1	1
Qozog'iston	94,0	74,4	78,6	79,1	3	2
Rossiya	124,2	70,9	89,9	57,1	2	3
Qirg'iz Respublikasi	22,3	25,1	81,6	112,8	5	4
Turkiya	25,4	21,9	76,0	86,1	4	5
Hindiston	6,3	14,0	55,1	2,2 m.	12	6
Koreya Respublikasi	13,3	8,3	88,9	62,1	7	7
Gonkong	6,6	8,2	110,9	124,3	11	8
Belarus	5,9	7,6	147,9	130,6	15	9
Germaniya	11,9	7,3	139,6	61,6	8	10
Italiya	5,9	6,6	93,9	110,7	14	11
Turkmaniston	0,6	3,4	17,9	5,9 m.	28	12
Yaponiya	0,4	2,9	7,7	6,4 m.	33	13
Eron	2,3	2,8	81,3	118,7	19	14
Polsha	9,0	2,6	135,2	29,4	9	15
Chehiya	2,0	2,3	85,3	117,9	21	16
Pokiston	0,5	2,3	70,7	5,0 m.	32	17
Shveytsariya	7,1	2,2	3,6 m.	30,7	10	18
Tojikiston	6,0	2,1	109,3	35,7	13	19
Singapur	0,0	2,1	74,6	267 m.	58	20

FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyun,
mln. AQSH doll.)*

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



28,8%

Qo'qon – 148,3

19,1 %

Farg'ona sh – 98,1

14,4 %

Uchko'prik – 74,3

6,7 %

Dang'ara - 34,5

5,9%

Marg'ilon – 30,3

5,2%

Toshloq– 27,0

2023- y.

2024- y.

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi importi tarkibida eng yuqori ulushni Qo'qon shahar 28,8 % ulush bilan **148,3** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Rishton tumani 0,3 % ulush bilan **1,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2024- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **147,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **36,1** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **28,6** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun)



XXR
95,8 mln.
AQSH. dollari



Hindiston
9,6mln.
AQSH. dollari



Turkiya
9,3 mln.
AQSH. dollari



Germaniya
5,2 mln.
AQSH. dollari




2024- yil yanvar-iyun oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **83,3** mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Farg'ona viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **95,8** mln. AQSH dollari (**65,0** %), Hindiston — **9,6** mln. AQSH dollari (**6,5** %) va Turkiya— **9,3** mln. AQSH dollari (**6,3** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **144,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,3** % ga o'sdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **28,1** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

XXR 65,2%

94,2 mln.
AQSH doll.



Qozog'iston 4,2 %

6,1 mln.
AQSH doll.



Rossiya 11,3%

16,3 mln.
AQSH doll.



Belarus 3,7 %

5,3 mln.
AQSH doll.



Gonkong 5,6 %

8,1 mln.
AQSH doll.



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki po'lat (**61,1** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**22,6** mln. AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**20,0** mln. AQSH dollari), qog'oz va karton (**4,6** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.